

uzoq muddatli barqaror rivojlanishga yetaklaydi. Energiya samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali korxonalar nafaqat xarajatlarni qisqartiradi, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi.

Yashil iqtisodiyot tamoyillari joriy etilgan korxonalar global raqobatbardoshlikni oshiradi, xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi va yangi yashil texnologiyalar orqali eksport salohiyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga, bunday korxonalar ekologik xavfsizlikka rioya qilishi sababli atrof-muhitni muhofaza qilishga hissa qo'shadi va xodimlar uchun qulay va xavfsiz ish sharoitlarini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, korxonalar uchun yashil iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etish — barqaror rivojlanish, iqtisodiy samaradorlik va ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bu tamoyillar korxonalarga kelajakda raqobatbardosh bo'lish, barqaror o'sishni ta'minlash va xalqaro standartlarga mos faoliyat yuritish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аткинсон, А. Как устойчивое развитие может изменить мир / А. Аткинсон; пер. с англ. В. Н. Егорова ; под ред. Н. П. Тарасовой. -М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2015. - 455 с.

2. Кальнер, В. Д. «Зеленая» экономика и безальтернативные ресурсы природы / В. Д. Кальнер, В. А. Полозов. - М.: Калвис, 2016. - 576 с.

3. Яшил иқтисодиёт: Дарслик. /А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажигакиев ва бошқалар. -Тошкент.: "Universitet", 2020. -262 б.

4. Иминов Т.К., Вахабов А.В., Тешабоев Т.З., Бутабоев М.Т. "Зелёная экономика" как основа устойчивого развития. Монография. - Т.: "Aloqachi", 2019. - 480 с.

"O'ZBEKISTON - 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA MAMLAKATIMIZ MINTAQALARI IQTISODIYOTIDA TURIZM INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI TARTIBGA SOLISH TIZIMI

Yusupova M.U.,

Urganch davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrasida mustaqil izlanuvchisi,

TATU Urganch filiali o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz mintaqalari iqtisodiyotida turizm industriyasini rivojlantirish zaruriyati va uni samarali tartibga solish tizimi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Turizm, industriya, turizm industriyasi, davlat, tartibga solish.

Mamlakatning turizm industriyasida global miqyosda ko'pgina firmalar, uyushmalar, korporatsiyalar va turizm agentliklari faoliyat yuritadi. Bu borada mamlakatning turizm sohasidagi raqobatbardoshligi tuzilmalarni ushbu turistik hududdan tashqarida ommalashtirish imkonini beradi. Bularning barchasi xorijiy

sayyohlik kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlik tufayli turistlar sonining sonining ko'payishi bilan belgilanadi. Ko'pincha, bu holatga mamlakatning turistik jozibadorligini rivojlantirish uchun turizm raqobatbardoshligi indeksidan foydalanish to'g'ri keladi. Uning o'zi mintaqa turizm industriyasining rivojlanishini baholashni asoslaydi. Bugungi kunda jahon mamlakatlaridan kelgan turistlarning manzilli sayohat qilishlariga harakat qilmoqdalar. Qolaversa, ularning aksariyati turizmning rivojlanish bosqichi sharoitida ommalashib borayotgan mintaqaga mos keladi. Bu esa jozibador xizmatlar uchun narxlarining sezilarli darajada pastligiga asoslanadi. Ustuvorlik tamoyilida foydani oshirishda turli badallar qo'llaniladi.

Mamlakatda mehmondo'stlik va sayyohlik xizmatlari darajasi tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda va yangi bosqichga ham ko'tarilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son Qonuni³⁰ qabul qilinib, ushbu qonunning 2-bobi turizm sohasini tartibga solishga qaratilgan. Qonunning 6-moddasida turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari yoritib berilgan. Ammo, mamlakatda maksimal foyda olish uchun mijoz va mehmon qulayligi, xizmat ko'rsatishi va qoniqishi orqali daromad olinadi. Bu borada mamlakatimizda turizm turini, jumladan, rekreatsion, tibbiy, ekoturizm va ishbilarmonlik turizmini rivojlantirish imkoniyatlariga ega. Turizm biznes rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan va shoshilinch o'sishni talab qiladigan qator muammolar mavjud. Hozirgi kundagi muammo esa turistlarga xizmat ko'rsatish darajasining pastligidir. Bunda turizm industriyasini xabardor qiladigan ko'pgina manbalar mavjud. Ammo, mutaxassislar turizmning yuqori xorijiy standartlariga mos keladigan bilimlarini ta'minlay olmaydi.

Shuningdek, me'yoriy-huquqiy hujjatlarda turizm industriyasining ishlash qoidalari aniq belgilab qo'yilgan. Davlat hukumati turistik mahsulotni ishlab chiqish va iste'molga havola etishning barcha jabhalarida muhim ahamiyat kasb etadi³¹.

Bu o'z navbatida hukumat vakillarining xususiy sektorlar bilan hamjihatlikda ishlashini taqazo etadi. Bu borada mamlakatda chet ellik sayyohlar uchun sug'urtani huquqiy tartibga solishning boshqarilishi jiddiy takomillashtirishni talab qiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, sug'urta shartnomalari tiklanish davrida turist o'z zimmasiga olishi mumkin bo'lgan xavflarni o'zgartiradi. Bir xil darajada bu transport infratuzilmasi darajasini belgilaydi. Yirik parklarning mintaqa parametrlariga mos kelishi ma'naviy va jismoniy eskirishning yuqori darajasiga asoslanadi. Bu esa sohadagi iqtisodiy islohotlar va o'zgartirishni talab qiladi.


Aholining turistik qiziqishlarini ta'minlash maqsadida ichki turizmni takomillashtirish va boshqa yondashuvlar amalga oshirildi. Ushbu o'zgarishlar turizm industriyasi faoliyati sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Turizm faoliyati ko'lamini

³⁰ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son Qonuni. Manba: <https://lex.uz/docs/-4428097>

³¹ Yo'ldosheva L.T. Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning xorij tajribasi. // "Экономика и социум", №7(110), 2023. - 371 б.

o'zgartirib, biznes va infratuzilma uchun qo'shimcha ta'sirlarni yaratdi. Bu borada turizm industriyasi rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish muhim rol o'ynaydi. Turizm industriyasida davlat boshqaruvi mexanizmlarini shakllantirish, aholi xavfsizligini ta'minlash va sohani samarali boshqarish amalga oshiriladi. Bu borada tahdidlarni bartaraf etishga emas, ya'ni turizm sohasini yangilash va qo'llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqishga e'tibor qaratish lozim. Shu orqali moliyaviy, infratuzilmaviy va marketing yordami yangilanib boradi va tejamkor turizm foydasi unsuri bo'lib qaraladi.

Mamlakatimizda turizm industriyasini tartibga solish iqtisodiyoti va madaniyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu holat davlatning bevosita turizm sohasini tartibga solishdagi iqtisodiy faoliyatni rivojlantiradi. Chunki, turizm industriyasi eng muhim bo'lgan insoniy, tabiiy va moliyaviy resurs bo'lgani uchun uni samarali boshqarish, jumladan, maxsus huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini ta'minlash zarur. Bunday tartibga solish raqobatning salbiy tomonlarini bartaraf etish va aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratiladi.



1-rasm. Turizm industriyasini tartibga solish usullari³²

Avvalo, turizmni davlat tomonidan tartibga solish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish voqeiliklariga muvofiq turistlar manfaatlarini himoya qilish uchun zarur va keng qamrovli standartlarni o'rnatishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bu borada turizm industriyasini rivojlantirish jarayonlarini tartibga solish alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning asosiy majburiyatlariga quyidagi keltirilgan majburiyatlar kiradi:

- 1) aholi va turistlar xavfsizligini ta'minlash.

³² Muallif ishlanmasi.

Davlat xavflarni kamaytirish va turistik marshrutlar va obyektlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha samarali yondashuvlarni ishlab chiqishi lozim. Mintaqa hududida sayyohlar uchun vaqt cheklovlarini joriy qilish nazoratni ta'minlash mumkin.

2) ichki turizmni rag'batlantirish.

Tashqi turizm yukini kamaytirish uchun ichki turizmni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu mamlakatning ichki hududlarida turistik marshrutlar va obyektlarni ishlab chiqish va targ'ib qilishni o'z ichiga oladi.

3) turizm brendini ommalashtirishning marketing tadbirlarini rejalashtirish.

Sayyohlar uchun jozibador bo'lgan yangi axborot mahsulotlarini ishlab chiqish va noyob turistik brendni yaratish lozim. Mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik voqeiliklariga qaratilgan turizm marketing tadbirini ishlab chiqish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sohoni amalga oshirishga qaratilgan dasturlar turistlar manfaatlariga muvofiq xilma-xillikni ta'minlash uchun javobgar bo'ladi. Davlat tomonidan tartibga solish pulni tejash va potensial turistlar orasida mamlakat ijobiy imidjini yangilashga qaratilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

4) turizm industriyasi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, turizmdagi innovatsiyalar omili kichik va o'rta biznes sektori bo'lib hisoblanadi. Uning moslashuvchanligi o'zgaruvchan fikrlarga tezda moslashish va turizm resurslaridan samarali foydalanishga imkon beradi. Ammo, ko'pgina kichik va o'rta biznes yetarli moliyaviy kuchga ega bo'lishi zarur. Bu esa yetarli zaxira va moliyaviy resurslar hajmini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, turizm sohasidagi modernizatsiyaga qo'shgan hissasi xalqaro va milliy moliyaviy qo'llab-quvvatlash darajasida belgilanishi qolishi kerak.

5) turizm infratuzilmasini saqlash va yangilash. Unga asosan, turizm infratuzilmasini saqlab qolish va modernizatsiya qilish hamda turistik obyektlarni ta'mirlash uchun moliyaviy va texnik yordam ko'rsatish imkoniyatlarini ko'rib chiqishi kerak.

6) muqobil turistik yo'nalishlarni rivojlantirishga ko'maklashish.

Mamlakatda dam olish uchun mo'ljallangan yo'llarning mashhurligi ortib bormoqda. Rivojlanish maqsadida amalga oshirilgan bunday sayohatlar turli xatoliklarga asoslanadi. Ushbu korxona bilan bog'liq holda xizmatlarning psixologik va jismoniy yangilanish imkoniyati yaratiladi. Bu esa samarali ish yoki ko'ngillilik ish faoliyati uchun kuch va quvvat beradi. Potensial turistik oqimlarni tejash borasida muqobil turistik yo'nalishlarni rag'batlantirish ahamiyatga ega.

Davlat tomonidan tartibga solish turizm industriyasini yanada rivojlantirish hamda kelajakda barqaror va raqobatbardosh turizm industriyasini yaratish uchun muhim yo'nalish bo'lib hisoblanadi.

Xulosa shuki, turizm industriyasining yangilangan va barqaror rivojlanishi turizmni davlat tomonidan tartibga solishning samarali yondashuvlarini tashkil etishga asoslanadi. Turizmni yangilash bo'yicha samarali strategiyalar mamlakatning yangi voqeilikka moslashishi va sayyohlarni jalb qilish imkonini

beradi. Bu esa turizm bozori uchun samarali yondashuv va strategiyalarni aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son Qonuni. Manba: <https://lex.uz/docs/-4428097>

2. Yo'ldosheva L.T. Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning xorij tajribasi. // "Экономика и социум", №7(110), 2023. - 371 b.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA QISHLOQ XO'JALIGI
TARMOG'INING O'RNI VA UNDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI IQTISODIY-
STATISTIK TAHLILI**

Zakirova Umida Maxamadaminovna

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya

va sport Universiteti,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi,

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha

falsafa doktori (PhD)

Bugungi kunda dunyoda global beqarorlik holatining yuzaga kelishi oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni o'rganishga alohida e'tibor qaratishni va bu borada kengaytirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni taqozo etmoqda. Mazkur tadqiqotlarda agrar sektorning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, aholi soni va talablari o'sishini qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan mutanosibligini ta'minlash, agrar sektorni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini ixtisoslashtirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalar va uslublarni qo'llash orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirish zaruriyatini taqozo etadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, jahon aholisining so'nggi 20 yil ichida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabi yiliga o'rtacha 5-7 foizga o'sib bormoqda³³.

Globallashuv jarayonlari Respublikamizning tashqi iqtisodiy aloqalari va qishloq ho'jaligining raqobatbardoshligini oshirishga jahon xo'jaligi ko'rsatadigan ta'sirni to'liqroq hisobga olish zarurligini ko'rsatdi. Jahon koronavirus pandemiyasi asoratlaridan hali to'la qutilmagan sharoitda qishloq ho'jaligi mahsulotlari eksportini ko'paytirish, tashqi bozorlarga chiqish davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi muammosi o'ta muhim masalalardan biridir³⁴.

Qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati O'zbekistonning iqtisodiyoti va aholisining farovonligi uchun ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakat

³³http://www.uz.undp.org/content/dam/uzbekistan/docs/Publications/economicgovernance/Improving_Productive_and_Export_Potential/un_uzb_Improving_Productive_%20and_Export%20Potential.pdf

³⁴ Abdulloev A.J. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida eksport salohiyatini oshirishda agroklastarlarning o'rni va ahamiyati. Central Asian academic journal of scientific research. Issue - 5, 2022.